

## **IQTIDORLI BOLALARNI O'QITISHGA IXTISOSLASHGAN MAKTABLAR FAOLIYATI METODIKASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Buriyeva Sora Salohitdinovna,  
Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti  
"Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon ilm-fani va madaniyati tarixida o'ta iqtidorligi bilan nom qozongan shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishish, bir yoki bir necha yo'nalishlarda, aqliy salohiyat, ta'lim olishga bo'lgan o'ziga xos xususiyat, ijodiy va samarali tafakkur, tasviriy yoki amaliy san'atga bo'lgan layoqat, psixomotor qobiliyatlarga tayangan holda muayyan natijalarni qo'lga kiritganlik, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini kashf etish va yanada rivojlantirish, o'qituvchining kasbiy mahorati yaxshi namunalari singdirish masalalari borasida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagogik va psixologik manbalar, qobiliyat, shakllantirish, iste'dod, individual, qobiliyatining yuqori darajasi, umumiy iqtidor, ilmiy tafakkur, milliy hunarmandchilik, haykaltaroshlik, musiqiy va tasviriy san'at.*

## **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДИКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛ, СПЕЦИАЛИЗИРУЕМЫХ НА ВОСПИТАНИЕ ТАЛАНДЕННЫХ ДЕТЕЙ**

*Буриева Сора Салоҳитдиновна,  
Старший преподаватель кафедры «Иностранные языки» Самаркандского  
государственного архитектурно-строительного университета,  
независимый исследователь*

*Аннотация: В этой статье вы познакомитесь с жизнью и деятельностью людей, прославившихся своим необыкновенным талантом в истории мировой науки и культуры, в одном или нескольких направлениях, интеллектуальным потенциалом, уникальной способностью к обучению, творческим и эффективным. Обсуждались вопросы мышления, способностей к изобразительному или практическому искусству, достижения определенных результатов на основе психомоторных способностей, выявления и дальнейшего развития творческих способностей учащихся, привития хороших примеров профессионального мастерства учителя.*

*Ключевые слова: педагогические и психологические ресурсы, способности, формирование, талант, личность, высокий уровень способностей, общий талант, научное мышление, народные промыслы, скульптура, музыкальное и изобразительное искусство.*

## **INCREASING THE EFFICIENCY OF THE ACTIVITY METHODOLOGY OF SCHOOLS SPECIALIZED IN EDUCATION OF TALENTED CHILDREN**

*Buriyeva Sora Salokhitdinovna,  
Senior lecturer of department "Foreign Languages" of Samarkand  
State University of Architecture and Construction, independent researcher*

*Annotation: In this article, you will get acquainted with the lives and activities of people who became famous for their extraordinary talent in the history of world science and culture, in one or more directions, intellectual potential, a unique characteristic for learning, creative and effective. The issues of thinking, ability to visual or practical art, achieving certain results based on psychomotor abilities, discovering and further developing students' creative abilities, inculcating good examples of the teacher's professional skills were discussed.*

*Key words: pedagogical and psychological resources, ability, formation, talent, individual,*

*high level of ability, general talent, scientific thinking, national crafts, sculpture, musical and visual arts.*

Kirish. Qanday shaxsni “iqtidorli” deb atash mumkin? Shaxs iqtidori nimada ko‘rinadi? Shaxs iqtidori darajasini o‘lchash mumkinmi? Iqtidorli o‘quvchilar tengdoshlaridan qanday xususiyatlariga ko‘ra farqlanadilar? Iqtidorli o‘quvchilarni bilan ishlashda nimalarga e‘tibor berish zarur?

Pedagogik va psixologik manbalarda “qobiliyat”, “iste‘dod” tushunchalari birdek qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda “iqtidor” tushunchasi “iste‘dod” tushunchasining muqobili sifatida qo‘llanilmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, qobiliyat “shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan individual psixologik xususiyat” [2, 18] iste‘dod, iqtidor esa “shaxsning ma‘lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi” [2, 44] demakdir.

Iqtidor mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus iqtidor kabi guruhlariga bo‘linadi. Qayd etilgan xislatlar umumiy iqtidorga xosdir. Umumiy iqtidor yaxlit holda kamdan kam kishilardagina namoyon bo‘ladi. Insoniyat tarixida bu kabi nodir xislatga ega kishilar sifatida Aleksandr Makedonskiy va Napoleon Bonopart nom qozonganlar. Manbalarda yozilishicha, ular bir vaqtning o‘zida yetti xil faoliyatni bajara olganlar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, milliy tarixni xolis yoritishga qaratilgan harakat natijalari buyuk sohibqiron Amir Temurning ham nodir xislatga ega bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Maxsus iqtidor turli ko‘rinishdagi faoliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san‘at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) bo‘yicha namoyon bo‘ladi.

Demak, qobiliyat, iste‘dod va iqtidor:

muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi;  
individual xususiyat sifatida aks etadi.

Shaxs iqtidori mohiyatiga ko‘ra turli yo‘nalish va darajada ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni:

1) yo‘nalishiga ko‘ra: ilmiy tafakkur (ilm-fan yo‘nalishida), badiiy tafakkur (adabiyot yo‘nalishida), musiqa (musiqa yo‘nalishida), sport (sport sohasida), raqs (xoreografiya yo‘nalishida), tasviriy san‘at (rassomlik yo‘nalishida), amaliy san‘at (milliy hunarmandchilik, haykaltaroshlik yo‘nalishlarida), texnik iqtidor (texnika yo‘nalishida), harbiy mahorat (harbiy sohada), ijtimoiy moslashuvchanlik (ijtimoiy munosabatlar yo‘nalishida);

2) darajasiga ko‘ra: qobiliyatlilik, iqtidorlilik, noyob iqtidorga egalik (daholik).

Iqtidorga egalik turli vaziyat va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Kishilik tafakkuri tarixida noyob iqtidorga egalik quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganligi barchaga ma‘lum, ya‘ni:

yoshlik yillaridanoq badiiy, musiqiy va tasviriy san‘at asarlarini yarata olish (Alisher Navoiy, Aleksandr Sergeevich Pushkin, Vilyam Sheksper; Volfgang Amadey Mosart, Lyudvig Van Betxoven, Fridrik Shopen, Iogann Sebastyan Bax, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Bronarroti Mekelanjelo, Rafael (Rafaello Santi);

yoshlik yillaridanoq o‘ta murakkab matematik amal va fizik formulalarni bajara olish (Lev Davidovch Landau, Mixayil Lomonosov, Tomas Alva Edison);

3) yoshlik yillaridanoq jang qilish san‘atini namoyon etish (Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, Napoleon Bonapart, Aleksandr Suvorov).

Jahon ilm-fani va madaniyati tarixida o‘ta iqtidorlilik bilan nom qozongan shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishish shuni ko‘rsatdiki, ilm-fan, texnika va ijtimoiy munosabatlar yo‘nalishida iqtidorlilik yuqorida qayd etib o‘tilgan yo‘nalishlardan farqli ravishda bir qadar keyinroq ko‘zga tashlangan.

Iqtidorli bolalarni tanlash murakkab jarayon bo‘lib, uni tashkiliy jihatdan to‘g‘ri amalga oshirish talab etiladi.

Jahon pedagogikasi iqtidorli bolalarni aniqlash bo‘yicha muayyan tajribalarga ega bo‘lsa-da, iqtidorlik darajasini aniq belgilovchi yagona metodika mavjud emas. Ayni vaqtda individual

farqlar hamda shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarni belgilashda psixometriya doirasida bir qator metodlaridan foydalanilmoqda.

Jahon ta'limi tajribasida iqtidorli bolalarni tanlashga bo'lgan quyidagi ikki tizim qo'llaniladi. Yagona baholash tizimi bolaning ma'lum xususiyati yoki faoliyatining ayrim olingan jihatlarini o'rganish va baholashga yo'naltiriladi. Bu holatda maxsus testlardan individual foydalaniladi, bola shaxsi turli sharoit va yo'nalishlarda o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim oluvchilar safini kengaytirish bugungi kunda ta'lim jarayonida sifatli dars berish metodlaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olish, tajribali o'qituvchilarni dars jarayoniga jalb qilish va hu bilan bir qatorda dars jarayonini innovatsion hamda axborot kommunikatsion tizimlar bilan ta'minlashni talab qiladi. Qolaversa ta'lim oluvchilarning huquq va erkinliklarini ifodalovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston respublikasida ham "Yoshlar to'grisida", "Ta'lim to'grisida", "O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati to'grisida"gi qonunlar mazkur soha talablarini bajarishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'grisida"gi Qonuning 46-moddasida keltirilganidek: Pedagog xodimlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi majburiyati yuklatilgan [1]. Kompyuterni o'qitish sohasida allaqachon boy tajriba mavjud bo'lishiga qaramay, ko'plab o'qituvchilar kompyuterda o'qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatidan ehtiyot bo'lishadi. Shuningdek, ta'limni kompyuterlashtirish jarayoni bir qator muammolarga duch kelayotganini ta'kidlash lozim. Axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish jarayoni ancha murakkab va chuqur tushunishni talab qiladi. Bir tomondan, ular o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, ikkinchidan, kompyuter yordamida o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirish tezligi muammosi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin [2]. Mazkur holatlarning barchasi ta'lim sohasidagi islohotlarni uzviy davom ettirishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kun tadqiqotlarida keltirilayotgan ilmiy xulosalar va takliflar yangidan-yangi zamonaviy tadqiqot usullarini talab qiladi. Shu boisdan ham tadqiqotlarda zamonaviy texnologiya va tadqiqot usullaridan foydalanish talab qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimlashtirish, taqqoslash, qiyoslash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan ham foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Iqtidorli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

nodir qobiliyatlarni namoyon eta olish;

yuksak natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlariga egalik;

bir yoki bir necha yo'nalishlarda (aqliy salohiyat, ta'lim olishga bo'lgan o'ziga xos xususiyat, ijodiy va samarali tafakkur, tasviriy yoki amaliy san'atga bo'lgan layoqat; psixomotor qobiliyatlarga tayangan holda) muayyan natijalarni qo'lga kiritganlik [3, 16].

Iqtidorli bolalar ega bo'lgan nodir qobiliyatlar orasida:

bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va boshqalar);

atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqyelikni birdek qabul qilish (jumladan, o'qituvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi har bir o'quvchi faoliyatini kuzata olish);

o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqyea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarning berilishi);

miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", shuningdek, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik iqtidorli bolalarga xos xususiyat emas);

nutqi va fantaziyasining boyligi (iqtidorli bolalarning aksariyati juda erta gapirishni o'rgangan, ularning nutqi kutilgandan ko'ra yuqori, shuningdek, ularda fantaziya (tasavvur



qilish) qobiliyati nihoyatda kuchli);

kuchli xotira (yirik hajmdagi matni, jumladan, dostonlarni bir marta o‘qish bilan to‘laligiga yodlab olib, uni so‘zma-so‘z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o‘rin tutadi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashning an’anaviy ta’lim jarayonidan farqli tomoni - bu pedagogik faoliyatning maxsus o‘quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o‘qitishning o‘ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o‘quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma’lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

Dasturning individuallashtirilganligi.

Dasturlarni tuzishda o‘qituvchilarning ishtirokini ta’minlash.

Dasturlarni yaratish va uni ta’lim jarayoniga yo‘naltirishdagi shaxsiy mas’uliyat.

Ish joylarida mutaxassislarining malakalarini oshirish.

Pedagoglarning malakasini oshirishga sarflanuvchi qo‘shimcha mablag‘lar.

Dasturda turli metodlarning o‘rin olishi.

Individual va guruhli tayyorgarlik darajasini baholash.

Ushbu tamoyillar asosida o‘quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish ham iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayoniga o‘qituvchilarni jalb etishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunining shakllanishiga yordam beradi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada mavjud imkoniyatlardan to‘laonli foydalanishni taqozo etadi. O‘qituvchilarning to‘g‘ri tanlanishi iqtidor bolalarni o‘qitishda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi.

1998 yildan boshlab respublikada Tashhis markazlari faoliyat olib bormoqda. O‘z tarkibiga psixolog, pedagog, fiziolog, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislar jalb etilgan markaz olti-yetti yoshli bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasini bajarmoqda. Bizning nazarimizda, ularning faoliyati aynan bolalarning iqtidori darajasini aniqlash, ularni layoqati, qobiliyati va iqtidori darajasiga ko‘ra turli yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi ta’lim muassasalarga jalb etishdan iborat bo‘lishi lozim. Markaz faoliyati yordamida iqtidorli bolalarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri aniqlash, ularning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Mavjud tajribaga tayangan holda mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ham ixtisoslashgan maktablarni shakllantirish va ularda ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda respublika uzluksiz ta’lim tizimida muhim o‘rin tutgan o‘quv muassasalari orasida iqtidorli bolalarni o‘qitishga ixtisoslashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ham alohida o‘rin tutib, ular quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib bormoqdalar: ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar, matematika, fizika, kimyo, biologiya, xorijiy tillar, musiqa, sport va raqs.

Qo‘shimcha ta’lim muassasalari sifatida e’tirof etilgan ixtisoslashgan maktablar esa quyidagi yo‘nalishlarda samarali faoliyat olib bormoqda: radiohavaskorlik, xalq amaliy san’ati (ganchkorlik, o‘ymakorlik, naqqoshlik, duradgorlik, kashtachilik, zardo‘zlik, kulolchilik va boshqalar), tasviriy san’at, musiqa, raqs; maishiy xizmat ko‘rsatish (elektr asboblarini ta’mirlash, umumiy ovqatlanish va boshqalar).

An’anaviy va ixtisoslashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘rtasida umumiy o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, ular muayyan xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi ham. O‘xshashlik va farqlar quyidagilardan iborat:

I. Umumiy o‘xshashliklar:

ta’lim O‘zbekiston Respublikasining Konstitutiysi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq tashkil etiladi; [1].

barcha fanlar bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmuni Davlat ta’lim standartlarida o‘z ifodasini

topgan;

ta'lim va tarbiya birligining ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratiladi;

ta'lim muassasasi faoliyati tegishli yuqori tashkilotlar (jumladan, tuman, shahar va viloyat Xalq ta'limi bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) tomonidan nazorat qilib boriladi.

ta'lim muassasasi yuqori tashkilotlar oldida hisobot berish majburiyatiga ega va boshqalar.

II. Asosiy farqlar:

ta'lim umumiy yoki maxsus o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olish majburiy, ixtisoslashgan o'rta umumiy ta'lim muassasalarida o'qish esa ixtiyoriy;

ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim uchun ajratilgan soatlarning asosiy qismi maxsus fanlarning chuqur o'qitilishi uchun ajratiladi;

ta'lim samaradorligi:

a) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari;

b) ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa qo'shimcha ravishda ta'lim muassasasi o'quvchilarining turli yo'nalishlarda tashkil etilgan tanlov, ko'riklardagi muvaffaqiyatli ishtiroki bilan ham belgilanadi.

Demak, ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining faoliyatini uning ichki xususiyati hamda ta'lim muassasasiga jalb etilgan iqtidorli bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish kutilgan natijalarni beradi.

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining moddiy-texnik holatini mustahkamlash, ta'lim jarayonining zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishiga erishish, o'quvchilar bilimining jahon standartlari talablari darajasiga ko'tarish va ta'lim muassasalari faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. Sinf xonalari, auditoriyalarning zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi, o'quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishga imkon beruvchi maxsus xonalarning tashkil etilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – 118 б.

Психология. Қисқача изоҳли луғат /Тузувчилар: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. – Т.: ТДПУ, 1998.

Одарённые дети (Пер. с англ.). – М.: Прогресс, 1991.

Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилик ижодкорлигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари (меҳнат ва касб таълими факул. мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. - Т.: 2000.

Рашидов Х.Ф. и др. Концепция развития системы повышения квалификации и переподготовки кадров в Республике Узбекистан. – Т.: Фан, 1998.

Маттиев, И. Б. (2022). Таълим тизимида инновацион технологиялар ва уларнинг қўлланилиши. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(11), 22-24.

Mattiev, I. B. (2022, February). Innovation technologies in education system and their USE. In Conference Zone (pp. 167-168).

Mattiyev, I. B. (2024). Talabalarda madaniyat mazmunining invariantini o'zlashtirganda subyektivlikka aylanish jarayonining mexanizmlari. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 3(1), 210-213.